



## **CLIL TEXNOLOGIYASINING BOSHLANG‘ICH SINFLINGVISTIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI**

**Tòxtaboyeva Mahliyo Rustamjon qizi**  
Qo‘qon DU doktoranti

**Annotatsiya.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilidan til ko‘nikmalarini rivojlantirish – bu uzoq muddatli ta‘limning muvaffaqiyatli asosini yaratadigan jarayon. Bu jarayonning samaradorligi darsning qiziqarli va ijodiy bo‘lishiga, shuningdek, o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq.

**Kalit so‘zlar:** PISA, TIMSS, Tinglash, gapirish, o‘qish va yozish, kompetensiyasi, integratsiya

Tinglash, gapirish, o‘qish va yozish kabi asosiy ko‘nikmalarni o‘z ichiga olgan integratsiyalangan yondashuv o‘quvchilarning tilga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ularning kelajakda muvaffaqiyatli til o‘rganishlariga zamin yaratadi.

Hozirgi globallashuv davrida xorijiy tillarni o‘rgatish jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Til nafaqat muloqot vositasi sifatida, balki madaniyatlararo aloqalar, ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida ham qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, CLIL (Content and Language Integrated Learning – Mazmun va Tilni Integratsiyalashgan O‘qitish) texnologiyalari o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali yondashuv hisoblanadi. Ushbu texnologiya til o‘rganishni amaliy va nazariy bilimlarni birlashtirish orqali yanada mazmunli va qiziqarli qilib tashkil etadi. CLIL texnologiyalari til va boshqa fanlarni bir vaqtda o‘qitish imkonini berib, o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga ularning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va madaniyatlararo muloqot qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Shu bilan birga, bu yondashuv milliy va xalqaro ta‘lim standartlariga mos keluvchi natijalarni ta‘minlashga xizmat qiladi. Mazkur paragrafda o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda CLIL texnologiyalarining nazariy asoslari, ularning afzalliklari va qo‘llanilish tamoyillarini yoritishga qaratilgan.

Ta‘lim va tarbiya oluvchining til faoliyatiga asosiy ahamiyat bergan qadimgi metodlaridan biri – so‘fiylikda qo‘llanilgan ta‘lim-tarbiya tizimi hisoblanadi. Bunda shogirdning o‘zi o‘zlashtirgan bilimlarini boshqalarga o‘rgatish bilan shug‘ullanishini ko‘zda tutuvchi tamoyilga rioya qilinganligini ham eslatib o‘tish lozim. Bunda shogirdning ta‘lim olishga bo‘lgan istagining qanchalik jiddiyligini hamda ta‘lim olish, uni amaliyotda qo‘llay olish, jamiyat uchun foydali qiymat yarata olish yo‘lidagi qiyinchiliklarga chidash va ularni yengib o‘tishga tayyorligi darajasini qattiq, ko‘pincha kutilmagan keskin sinovlardan o‘tkazilgan.

Til faoliyati O‘zbekiston Respublikasining hozirgi globallashuv davrida dunyodagi iqtisodiy mavqeini belgilab beruvchi faoliyat hisoblanadi. Dunyodagi ko‘plab pedagogik, sotsiologik tadqiqotlar o‘quvchilarda ijtimoiy-iqtisodiy ongning kamol topishida, ularda til qadriyatlariga bo‘lgan munosabatlarning shakllanishiga

avvalgiga nisbatan ko‘proq ehtiyoj borligini, buning uchun ta‘lim-tarbiya jarayonida ta‘lim oluvchilarda global iqtisodiy o‘zgarishlar davrida “til ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim”, “til munosabatlarini rivojlantirish” kabi tushunchalar a‘lim-tarbiya jarayonining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanib, ijtimoiy-iqtisodiy, tarbiyaviy, texnologik, xorijiy til fanlarining bog‘liqlikda o‘qitilish orqali o‘quvchilarda til sifatlarini rivojlantirilishining ahamiyati ortib bormoqda.

O‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishni modellashtirishda konseptual qoidalar mavjudligi maktab ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi PISA, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etishda xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

O‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni tuzilmasi xalqaro baholash dasturi talablarini milliy o‘qitish tizimi bilan o‘zaro uyg‘unligining konseptual qoidalarini aniqlashtirish o‘quvchilarda til kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligini oshishiga, kompetensiyaviy yondashuvlarning funksional aloqadorligini modellashtirishga xizmat qiladi.

CLIL metodikasi o‘quvchilarga nafaqat tilni o‘rganishda keng imkoniyatlar yaratadi, balki ularning umumiy intellektual salohiyatini oshiradi. O‘quvchilar boshqa fanlarni til orqali o‘rganish jarayonida, o‘zlarining mavzularni chuqurroq tushunishadi va amaliy bilimlarni egallashadi. Bu esa ularning umumiy bilim darajasini oshiradi. O‘quvchilar ingliz tilini o‘rganish bilan birga, shu tilni ilmiy va texnik sohalarda qo‘llash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. Bunday integratsiyalashgan yondoshuv, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va ijodiy yondoshuv ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

CLIL texnologiyasi o‘quvchilarga nafaqat lingvistik ko‘nikmalarni, balki ilmiy, madaniy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarni faollikka undab, ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida maydonga chiqadi. Ta‘lim jarayonida o‘yinlar, rolli mashg‘ulotlar va amaliy topshiriqlar orqali o‘quvchilarni jalb qilish CLIL texnologiyasining asosiy afzalliklaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva, N. (2020). Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan va texnologiya. 37 b.
2. Tursunov, K. (2021). O‘qitish metodikasi: usullar va qiyinchiliklar. Toshkent: O‘zbekiston Nashriyoti. 76 b.
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2009. 83 b.